



## АКТУАР МОЛИЯ ВА БУХГАЛТЕРИЯ ХИСОБИ ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ

**Vol. 4 Issue 01 | pp. 303-310 | ISSN: 2181-1865**  
**Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>**

### SANOAT KORXONALARIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI



*Ismoilova Gulshoda Kamoliddinovna,  
Farg'ona Politexnika instituti  
Email: gulshoda850@gmail.com*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada sanoat korxonalarida korporativ boshqaruv timini tashkil etish, boshqaruvning tashkiliy iqtisodiy mehanizmlari, unga tas'ir etuvchi omillar va elementlar yoritilgan. Ushbu jarayonda sanoat korxonalarining boshqaruv jarayoni bilan bog'liq muammolar va ularning yechimiga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, sanoat korxonalaridagi ishlab chiqarishning barqaror va muvozanatli o'sishini ta'minlash, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalg etishni kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy muhitni yaratish, tarmoq korxonalarini yanada restrukturizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash hamda eksportni ko'paytirish kabi masalalar nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Korporativ boshqaruv, tashqi omillar, ichki omillar, baholash, tashkiliy mexanizm, iqtisodiy mexanizm, itisodiy barqarorlik, inqirozlar, strategik rivojlanish, raqobat, tashqi muhit, strategiya, boshqaruv, tashkiliy tuzilma.

### ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ СИСТЕМЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ

*Исмоилова Гулшода Камолиддиновна  
Ферганский Политехнический институт*

**Аннотация.** В данной статье описывается корпоративного управления в промышленных предприятиях, и их организационно-экономические механизмы управления, факторы и элементы, влияющие на него. В этом процессе были разработаны предложения и рекомендации, направленные на решение проблем, связанных с процессом управления промышленными предприятиями. Также обеспечить устойчивый и сбалансированный рост производства в промышленных предприятиях, усилить привлечение прямых иностранных инвестиций, создать благоприятную экономическую среду для развития малого бизнеса и частного предпринимательства, провести дальнейшую реструктуризацию отраслевых предприятий и также теоретически и практически проанализированы техническое и технологическое обновление и увеличение экспорта производства.

**Ключевые слова:** корпоративное управление, внешние факторы, внутренние факторы, оценка, организационный механизм, экономический механизм, экономическая устойчивость, кризисы, стратегическое развитие, конкуренция, внешняя среда, стратегия, управление, организационная структура.

## ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISMS OF THE CORPORATE MANAGEMENT SYSTEM IN INDUSTRIAL ENTERPRISES

**Ismoilova Gulshoda Kamoliddinovna**

Fergana Polytechnic Institute

**Abstract.** This article describes corporate governance in industrial enterprises, and their organizational and economic management mechanisms, factors and elements influencing it. In this process, proposals and recommendations were developed aimed at solving problems associated with the management process of industrial enterprises. Also ensure sustainable and balanced growth of production in industrial enterprises, strengthen the attraction of foreign direct investment, create a favorable economic environment for the development of small businesses and private entrepreneurship, carry out further restructuring of industry enterprises, and also theoretically and practically analyzed technical and technological updating and increasing production exports.

**Keywords:** corporate governance, external factors, internal factors, assessment, organizational mechanism, economic mechanism, economic sustainability, crises, strategic development, competition, external environment, strategy, management, organizational structure

**Kirish.** Mamlakatimizda bunugi kunda sanoat korxonalarining korporativ boshqarishning nafaqat zamonaviy falsafasiga, balki samaradorlikni ta'minlaydigan muhim texnologiyasiga aylanib ulgurdi. Takomillashgan korporativ boshqaruvin natijasida iqtisodiy qo'shilgan qiymatning (economic value added – EVA) sezilarli darajada ko'payishi, samaradorlikning ortishi va riskning kamayishi yuz berishi turli empirik tadqiqotlarda o'z aksini topgan. Ayniqsa sanoat korxonalari tomonidan innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish, boshqaruvga oid innovatsiyalardan amaliyotda keng foydalanish hisobiga yuqori iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishish, shuningdek, O'zbekistonning global reytinglardagi ko'rsatkichlarini yanada oshirishga qaratilgan hisoblanadi. Xususan, mamlakatimiz hukumati tomonidan 2030 yilga borib Global innovatsion indeks xalqaro reytingi ko'rsatkichlari tizimida jahonning yetakchi 50 ta mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish bo'yicha uzoq muddatli strategik vazifasi belgilangan [1].

Hozirgi vaqtida ekspertlarning bahosi va empirik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, korporativ boshqaruvin samaradorligini oshirish evaziga korporatsiyalarning bozor qiymati 20-30 foizga oshishi kuzatilgan. Bundan tashqari, samarali korporativ boshqaruvin tizimini shakllantirish milliy fond bozori kapitallashuvining oshishiga, tashqi moliyalashtirish manbalaridan foydalanish imkoniyatining paydo bo'lismiga va pirovardida mamlakatda tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi va ular raqobatbardoshligining yuksalishiga olib keladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Korporativ boshqaruvning zamonaviy konsepsiysi mohiyatan ancha keng bo'lib, bir paytning o'zida tashkilotlardagi turli

funksiyalarni, jumladan, menejment, moliya, hisob, biznes huquqi, biznes etikasi va iqtisodiyotini mujassamlashtiradi. Shuningdek, korporativ boshqaruv hisobdorlik, shaffoflik, oshkoraliq, ijtimoiy mas'uliyat, halollik (soflik) kabi jihatlarni hamda boshqaruv organlari, aksiyadorlar va manfaatdor tomonlar o'rtaсидаги munosabatlarni qamrab oladi. Bundan tashqari, ushbu konsepsiya tashkilotlarni samarali boshqarish va nazorat qilish uchun tartib-qoidalar, siyosat, usullar va tarkibiy tuzilmalarni belgilab beradi. Korporativ boshqaruv konsepsiyasining bunday keng qamrovligi bois, bu borada yagona umumqabul qilingan atama mavjud emas.

Korporativ boshqaruv bo'yicha tadqiqotlar olib borgan iqtisodchi olim A.Berlining tadqiqotlarida korporatsiyalarni boshqarishda strategiyani tanlash va korxona menejmentini rivojlantirish, investitsion faoliyatni boshqarish masalalari tadqiq etilgan [2]. Mahalliy iqtisodchi olimlardan S.S.Gulyamov [3], D.N.Rahimova [4], N.M.Rasulov [5], M.S.Saidovlarning[6] tadqiqot ishlari korporativ boshqaruv jarayonlarini ilmiy-nazariy asoslarini yaratishga qaratilgan. Ularning ilmiy izlanishlarida, mulk shakllari transformatsiyasi, korporativ boshqarish modellarini mukammallashtirish, aksiyadorlik korxonalarini rivojlantirish jarayonidagi masalalarda o'z ifodasini topgan. Jumladan, A.A.Xashimovning tadqiqotlarida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish sharoitida korporativ tuzilmalarni boshqarishni rivojlantirishning ilmiy-metodologik jihatlariga alohida e'tibor qaratilgan [7]. R.I.Yaushevning ilmiy izlanishlari integratsion korporativ tuzilmalar va ta'sischilar kapitalida davlat ishtirokidagi korxonalarini boshqarish muammolariga bag'ishlangan [8]. M.B.Xamidulin fond bozorini rivojlanishi, aksiyadorlik jamiyatlarida Kuzatuv kengashining roli va ahamiyati masalalari ustida fikr yuritgan[9]. O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlarini xususiylashtirish masalalari B.Yu.Xodiev, B.B.Berkinov kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli tahlil, ilmiy abstraksiyalash, iqtisodiy-matematik modellashtirish va boshqa usullardan keng foydalanildi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan samarali korporativ boshqaruv tizimini yaratish va baholash bilan bog'liq natijalar korporativ boshqaruv asosidagi korxonalar faoliyati, boshqa manfaatdor tuzilmalarda istiqbolli dastur va rejalarini ishlab chiqish imkonini beradi.

**Tahlil va natijalar.** Korporativ boshqaruv modellarini yoki tizimlari ilmiy munozaralar uchun yana bir muhim mavzu hisoblanadi. Turli adabiyotlarda korporativ boshqaruv modellariga nisbatan qarashlar xilma-xil bo'lishiga qaramasdan, korporativ boshqaruvning Kontinental Yevropa va anglo-sakson modellarini ikki bazaviy modellar hisoblanib, qolgan modellar ma'lum ma'noda shu ikki modeldan kelib chiqqan degan qarashlar mavjud. Masalan, korporativ boshqaruvning islomiy modeli (Islamic model) steykxolder (Kontinental Yevropa) modeliga moslashtirilgan bo'lib, anglo-sakson modelining eng yaxshi amaliyotlarini o'zida mujassamlashtirgan hamda asosiysi shariat tamoyillariga asoslangan model hisoblanadi.

Korporativ boshqaruvning kelib chiqishi va rivojlanishi bir nechta bosqichga bo'lish mumkin:

1. XVII asrda Ost - Ind (East India Company) kompaniyasi 24 a'zodan iborat bo'lgan direktorlar kengashini tashkil qildi. Birinchi marta mulkchilik va boshqaruv vazifalari bo'lib olindi;

2. 1776 yili Adam Smit o'zining "Halqlarning boyligining sabablari va tabiatlari haqidagi tadqiqotlari" asarida takidlaydiki: "Tashlab qo'yilgan mulklar boshqaruv uchun muammolarni keltirib chiqaradi", ya'ni boshqaruv va menejerlarni nazorat qilish uchun salbiy mexanizm hisoblanadi;

3. 1844 yilda birinchi marta aksionerlik jamiyatlari haqida qonun qabul qilindi. Qonunchilikka mulkchilikning yangi javobgarligi shaklidagi majburiyatlar joriy etildi;

4. 1931 yilda A. Berli va G. Minzlar «Zamanoviy korporatsiya va xususiy mulkdor» nomli maqolasini nashrdan chiqardi (AQSh). Unda birinchi marta mulkchilik vazifalarini nazorat vazifalaridan to'la to'kis farqi ajratib berildi;

5. 1933-1934 yillarda AQShda qimmatbaho qog'ozlar haqida qonun qabul qilindi, 1933yilda qabul qilingan ushbu qonun fond bozorini tartibga soldi. Ushbu bosqichda "Qimmatbaho qog'ozlar va birjalar to'g'risida"gi (1934 y.) aktga asosan axborotlarning ochiq berilishi imkonim mavjud bo'ldi va ushbu yili qonunlarni bir tartibda nazorat qiladigan, qimmatbaho qog'ozlar bozorini va birjalar faoliyati bo'yicha komissiya tuzildi;

6. 1968 yilda Yevropa ittifoqi «Kompaniyalar to'g'risida» qonun qabul qildi;

7. 1990 - yillarning boshida – tadbirkorlik imperatsiyasi inqirozga uchradi. Buyuk Britaniyada kelishmovchiliklar yuzaga keldi: bir qator kompaniyalar (Polly Peck, BCCI, Maxwell), aksiyadorlarni aldash bilan shug'ullanganliklari korporativ boshqaruvning amaliyotda investorlarni himoyalashni takomillashtirish kerakligini ko'rsatdi;

8. 1992 yil. Kedberi qo'mitasi birinchi marta korporativ boshqaruvning moliyaviy jihatlari bo'yicha kodeksni nashr etdi. (Buyuk Britaniya). 1993 yildan boshlab Buyuk Britaniya fond birjasidagi listingga kirgan kompaniyalar kodeks qanday bajarilayotganligi haqida hisobot bera boshladi;

9. 1992 – 2003 yillarda korporativ boshqaruv bo'yicha qator ma'ruzalar qabul qilindi, shundan asosiyлари:

1) Angliyada Rutmanning moliyaviy hisobot va ichki nazorat haqidagi ma'ruzasi;

2) Korporatsiyalar ishtirokchilarining har tomonlama hisobi haqidagi Kinganing ma'ruzasi;

3) Angliyalik Grinberining yuqori mansab shaxslarini rag'batlantirish to'g'risidagi ma'ruzasi;

4) Angliyalik Xempelaning korporativ boshqaruv to'g'risidagi ma'ruzasi;

5) Fransiyalik Venoning korporativ boshqaruvning asosiy tamoyillari haqidagi ma'ruzasi;

6) Niderlandiyalik Pitersning korporativ boshqaruvning umum qabul qilingan andozalariga rioya qilmaslik va javobgarlik haqidagi ma'ruzasi;

7) AQShda Sarbevns - Okslining moliyaviy ekspertlarning auditib bo'yicha qo'mita tarkibini aniqlash bo'yicha qonuni;

8) Angliyalik Xiggsning ish faoliyatini bajara olmayotgan direktorlar haqidagi ma'ruzasi.

O'zbekistonda ham mahalliy korporativ boshqaruvni shakllantirishning bir nechta bosqichlari mavjud:

1. 1980 – 1985 - yilgacha mavjud bo'lgan administrativ - buyruqbozlik usullari ya'ni davlatning markazlashgan tarzda iqtisodiyotni boshqarishi makroiqtisodiy halotining rivojlanishiga to'siq bo'ldi.

2. 1987 - 1991 yillari markazlashgan monopollashgan iqtisodiyot tugatildi va korporativ boshqaruvgaga asos solindi. Korxonalarni boshqarish ishchilarining qatnashuvi orqali mehnat jamoasining maslahati orqali amalga oshirish yo'lga qo'yildi. O'zbekistonda banklarning moliyaviy kapitallari va iqtisodiyotning sug'urta sektori rivojlanishiga yo'l ochildi.

3. 1991 - 1994 yillarda – xususiy lashtirish jarayoni boshlanib, birlamchi mulkni taqsimlash amalga oshirildi. Birinchi hissadorlik jamiyatlar shakllandi, lekin hissadorlarning huquqlari aniq ko'rsatib berilmadi.

4. 1994 - 1998 yillardagi korxonalarni xususiy lashtirish davri. Hissadorlik jamiyatlar to'g'risida qonun, qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi, Fuqoralik kodeksi, xususiy lashtirish to'g'risidagi qonunlar qabul qilindi. Bozor infratuzilmasi shakllandi, birlamchi investitsion fondlar, depozitarilar, registratorlar, auditorlik, konsalting firmalari shakllanishi bilan bir qatorda yirik xorijiy kompaniyalar, ularning filiallari, vakolatxonalar, qo'shma korxonalar tashkil etila boshlandi.

5. 1998 - 2001 yillar defolt, moliyaviy resurslarning yetishmasligi, kapitalning O'zbekistondan chiqib ketishi, korporativ qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanmaganligi kabi holatlar yuzasidan kelajakdagi mulklarni va kapitallarning taqsimlanishi jarayoni asosida ko'rib chiqila boo'landi. Bularning barchasi hissadorlarning o'z huquqini anglab yetishi asosida amalga oshirildi. Aniq korporatsiyalar misolida korporativ boshqaruva amalga oshirilib, ularning hammasi davlatning bazaviy hujjatlari asosida ya'ni korporativ kodeks, hissadorlik to'g'risidagi, qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunlar bo'yicha, shuningdek, jahon amaliyotida sinalgan me'yor va usullarining aprobatasiyasidan keyin keng qo'llanila boshlandi.

6. 2002 yildan hozirgi vaqtgacha korporativ tartib to'g'risidagi kodeksi, korporativ boshqaruva bo'yicha milliy kengash, ushbu kodekslarning yirik korporatsiya va kompaniyalar tomonidan joriy etilishi ta'minlanmoqda. Korporativ kodeks aksiyadorlik jamiyatlarining ichki hujjatlarini yuritish tartiblarini belgilab berish bilan bir qatorda aksioner jamiyatlarida boshqarish organlarining ham vakalotlariga aniqliq kiritib beradi.

Hozirgi sharoitda O'zbekistonda hamda iqtisodiyotda chuqur tarkibiy islohotlar o'tkazayotgan qator mamlakatlarda bu kabi muhim va amaliy choralarining amalga oshirilishi elektroenergetika korxonalarini modernizatsiyalashning zamonaviy boshqaruva tizimi bilan o'zaro bog'liqligini kuchaytirib, sohaning jadal rivojlanishiga qulay zamin yaratadi[18]. Yirik korporatsiyalar birjalarga joylashtirilgan qimmatli qog'ozlar hisobidan moliyalashtirilganligi hamda tashqi investorlarni jalb etganligi uchun ham standartlarni tatbiq etishdan yuqori darajada manfaatdordirlar. Ayni paytda o'rta va kichik kompaniyalar to'g'ridan-to'g'ri investorlarni qidiradilar yoki bank tomonidan kreditlanadilar.

Fikrimizcha, korporativ korxonalarni modernizatsiyalash jarayonini qimmatli qog'ozlar orqali moliyalashtirishga e'tiborni kuchaytirish lozim. Chunki hozirda ko'plab tarmoqlardagi modernizatsiyalash jarayonlari asosan milliy va xorijiy to'g'ridan-to'g'ri

investitsiyalar hisobidan amalga oshmoqda. Bu esa korxonaning tashqi qarzlarining ko'payishiga olib keladi.

Tadqiqot jarayonida olingen natijalar va yuqorida berilgan ta'rifga asoslanib, biz tomonidan tizimli tahlil va kompleks konseptual yondashuv asosida korporativ boshqaruvning quyidagi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlariga e'tibora qaratish maqsadga muvofiq hisoblanib, unda quyidagi elementlar o'rinni olgan:

1) korporativ boshqaruvning tashkiliy mexanizmi elementlari: - boshqaruv strukturasi (korporativ boshqaruvda qaysi boshqaruv sub'ektlari (ya'ni korporativ boshqaruv organlari) ni ishtirok etishi va ularning qanday o'zaro munosabat va ta'sir qilishini ko'rsatadi); - tashkiliy tadbirlar va omillar (har bir boshqaruv sub'ekti tomonidan korporativ boshqaruvni samarali tashkil etish va samarali qarorlarni qabul qilishda qanday tashkiliy tadbir va omillarni amalga oshirish lozimligini ko'rsatadi);

2) korporativ boshqaruvning iqtisodiy mexanizmi elementlari: - iqtisodiy usullar (boshqaruv sub'ektlarining qanday iqtisodiy usullarni qo'llagan holda korporatsiyaning samarali faoliyatini ta'minlash mumkinligini ko'rsatadi); - iqtisodiy dastaklar (boshqaruv sub'ektlarining qanday iqtisodiy dastaklar orqali korporatsiyaning samarali faoliyatiga ta'sir etish mumkinligini ko'rsatadi); - iqtisodiy ta'sir shakllari (boshqaruv sub'ektlari tomonidan iqtisodiy ta'sir etishni qanday turdag'i hujjatlar asosida amalga oshirish mumkinligini ko'rsatadi); - axborot ta'minoti (boshqaruv sub'ektlari tomonidan korporatsiyaning samarali faoliyatiga iqtisodiy ta'sir etish usullari, dastaklari va shakllaridan foydalanishlari uchun qanday axbotlar talab etilishini ko'rsatadi); - iqtisodiy samaradorlikni baholash mezonlari (korporatsiyaning iqtisodiy samaradorligi qanday mezonlar asosida baholanishi va belgilanishi mumkinligini ko'rsatadi).

3) korporativ boshqaruv mexanizmining tashkiliy va iqtisodiy maqsadlari:

- tashkiliy maqsadlar (korporatsiyada yaxshi korporativ boshqaruvni tashkil etish va amalga oshirishda erishilishi ko'zda tutilgan maqsadlar);

- iqtisodiy maqsadlar (korporatsiyaning barqaror iqtisodiy o'sishi va samarali faoliyatini ta'minlashda erishilishi ko'zda tutilgan maqsadlar).

Quyidagi xususiyatlar ishlab chiqilgan korporativ boshqaruv tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyatini belgilaydi: - korporativ boshqaruvning tashkiliy hamda iqtisodiy mexanizmlar elementlarining yagona majmuada o'zaro aloqasi va o'zaro bog'liqligi ta'minlanishi; - boshqaruvning tashkiliy tadbirlari va omillari hamda boshqaruvga ta'sir etishning iqtisodiy usullari, dastaklari va shakllarining yagona majmuada tizimlashtirilishi va ushbu tizimning ochiqligi ta'minlanishi; - korporativ boshqaruvning tashkiliy hamda iqtisodiy mexanizmlari yuritilishi natijasida iqtisodiy samaradorlik mezonlari (ishlab chiqarish hajmini o'sishi, foyda (daromad)ni oshishi, dividendlar hajmi va to'lanishi, investitsiyalarning oshishi, xarajatlarni kamayishi, aksiyalar qiymatini o'sishi) ga erishishning belgilanishi; - korporativ boshqaruvning tashkiliy hamda iqtisodiy mexanizmlarining korporatsiya maqsadlari va pirovard natijasi (korporatsiya faoliyatini samarali olib borish va takomillashtirish) bilan o'zaro aloqasi ta'minlanishi. Korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini boshqaruv tizimi sifatida ko'rib chiqar ekanmiz, ushbu kategoriya ostida nafaqat korporatsiyani boshqarish usullari, dastaklari va shakllarini (ya'ni boshqaruvning iqtisodiy mexanizmi) tushunish lozim, balki bu yana boshqaruv apparati (ya'ni boshqaruvning tashkiliy

mexanizmi) hamdir. Bu yerga qo'shimcha ravishda boshqaruv funksiyasini bajaruvchi kishilar va tashkiliy omillar kiritiladi. Bu shuni bildiradiki, korporatsiyadagi ishlab chiqarish va xo'jalik vazifalarini muvaffaqiyatli turli darajada hal etish korporativ boshqaruv organlari tomonidan korporatsiya faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida boshqaruvning turli usul va dastaklarini qo'llashni talab etadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, sanoat korxonalari faoliyatida korporativ boshqaruv usullarining institutsional qaror topishi jarayoni quyidagi omillar bilan izoxlanadi:

davlatning korxonalarni xususiylashtirish va ularning moliyaviy ahvolini mustahkamlashga qaratilgan choralar;

davlat korxonalarini aksiyadorlik jamiyatlarini tashkil qilish shaklida davlat tasarrufidan chiqarish jarayoni, emissiya ko'lamlarini kengaytirish va ularning aksiyalarini muomalaga chiqarish;

korxonalar aksiyadorlari huquqlarini davlat va uning vakolatli idoralari tomonidan himoya qilinishining mustahkam qonunchilik va institutsional bazasini yaratish.

Shu asosida mamlakatimizda korporativ boshqaruv tizimining samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilganligi, uning samaradorligini baholashningzamonaviy usullari va amaliyotining yo'lga qo'yilganligi ko'proq ahamiyatga ega. Korporativ boshqaruv tuzilmasida farqlar bo'lishiga qaramasdan, mamlakatlar milliy korporativ boshqaruv tizimini shakllantirishda korporativ boshqaruvning xalqaro tamoyillariga rioya qilish, xususan, milliy korporativ boshqaruv kodekslarini ishlab chiqishda aynan shu xalqaro tamoyillarni hisobga olishga harakat qilishadi. Bundankelib chiqadiki, tuzilmaning qanday bo'lishidan qat'i nazar, korporativ boshqaruvning umumqabul qilingan tamoyili, usuli va mexanizmlarini samarali joriy etish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

### Foydalaniman adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5544-son Farmoni, 21.09.2018 y. <https://lex.uz/ru/docs/3913188>
2. Berle A.A., Means G.C. The Modern Corporation and Private Property. Commerce Clearing House, Chicago, IL, 1992- pp. 68-87
3. Гулямов С.С. Задачи совершенствования системы корпоративного управления в Узбекистане. //Корпоративное управление в Узбекистане. Материалы научно-практической конференции. Т.: 2004. с.143-145; Д.Н.
4. Расулов Н.М. Корпоратив тузилмаларда инновацион жараёнларни стратегик бошқариш услубиётини такомиллаштириш: (DSc) дисс. автореф. -Т., 2021, -Б.81;
5. Gaibnazarova Z.T. Korporativ boshqaruvga kirish: Darslik /- Т.: "Chinor Fayzi Baland", 2022. – 432 b.
6. Umarxodjayeva M.G., Ismailov A.R. Korporativ boshqaruv-2. O'quv qo'llanma. - Т.: «IQTISODIYOT», 2019. - 216 bet.

7. Dr.Abdul Azeez P. Corporate governance & business ethics. University of Calicut. 2019. 109-p.
8. O'rmonov N.T., Ismailov A.R. Korporativ boshqaruv: prinsiplar, siyosat va amaliyat. O'quv qo'llanma. - T.: «IQTISODIYOT», 2019. - 256 bet.
9. Xamidov B. Инновационной активность компаний в Узбекистане. Журнал «Экономическое обозрение» № 9 (261) 2021 й. <https://review.uz/post/innovacionnayaaktivnost-kompaniy-v-uzbekistane>
10. Yushov R.I. Состояние и проблемы управления государственными пакетами акций корпораций// Корпоративное управление в Узбекистане. Материалы научно-практической конференции.-Т.: 2004. С.15.
11. Ilyosov, A. A. and etc. (2020). Problems of the use of digital technologies in industry in the context of increasing the export potential of the country. ISJ Theoretical & Applied Science, 10 (90), 113-117. Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS>
12. Ilyosov, A.A. (2020) Industrial and regional analysis of industrial production and export in Uzbekistan. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD). 5 (10). p 173-179. DOI:10.36713/epra2016.
13. Tytyk O. V. Корпоративный менеджмент. Рынок корпоративного контроля: слияния и поглощения компаний: учеб. пособие; Перм. гос. нац. исслед. ун-т. – Пермь, 2019. 121 с.

**Copyright:** © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

